



INSON TAFAKKURINING TAKOMILLASHUVIDA KITOBLARNING O'RNI

Jamilova Norjon

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada kitob mutoalasining inson tafakkurining takomillashuvidagi o'rni, insonning dunyoqarashi va ma'naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *kitob mutoalaa, tafakkur, takomillashuv, bilim manbai, fikrlash quroli, xazinalar kaliti.*

Kitob-insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga bo'lgan muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Ijodkorning madaniyati uning yozgan asarida aks etadi.

Inson tafakkurining takomillashuvida kitoblarning o'rni beqiyosdir, kitob insonni doim ezgulikka, komillikka yetaklaydi va uning barkamol bo'lib shakllanishida asosiy vosita hisoblanadi.

Ma'lumki, aholining intellektual va ma'naviy, estetik ehtiyojini qondirish, xususan, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar va ma'nun barkamol insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o'rni juda katta.

"Kitob-beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasini bilan oshno eta oladi" [1] deb yozadi buyuk shoir va mutaffakir Alisher Navoiy. Harqanday qiyin vaziyatda yordam qo'lini cho'za oladigan, har qanday jumboqni hech bir qiyinchiliksiz yecha oladigan sirdoshing bu kitobdir. Haqiqatdan ham Navoiy bobomiz bejizga kitob haqida bunday oltinga teng fikrlar aytmagan.

Shekspir "Kitoblarim men uchun butun umrga yetajak ulkan qirollikdir" [2] deydi. Shoirning ushbu jumlasidan o'zining naqadar kamtarligini, pul va boylikdan ko'ra kitobni ustun qo'yishi, moddiy boyligi tugagan taqdirda ham kitoblari bilan hayot kechira olishi mumkinligini anglab olsa bo'ladi.

Inson kitob mutalaa qilgan ekan, unda uyg'ongan hissiyotlari, salbiy qahramonga nisbatan g'azab va nafratlari, ta'sirchan voqealar tufayli to'kilgan ko'z yoshlari insonning haqiqiy insonligini va asarning haqiqiy asar ekanligini isbotlaydi. O'kir Hoshimov ham, "Kitobdagi quvonch va istiroblarni o'quvchi o'ziniki deb qabul qilsagina, o'sha haqiqiy asardir" deb takidlagan.

Kitobdan shunchaki ermak yoki bo'lmasa zerikishda qo'l keladigan bir vosita sifatida foydalanish xatodir. Kitob tafakkur va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, uning shaxs bo'lib shakllanishida asosiy turtki beruvchidir. Kitob mutoala qilish jarayonida undagi ma'lumotlarni kishi nafaqat ongi



va ko'zi,shuningdek ko'nglini ham birdek uyg'oq holda tutishi bilan xotirasida saqlab qolishi mumkin.

Kitob o'qishdan maqsad bu uning mazmunini anglab yetish, unga singdirilgan ma'no-mazmunni qalban tuyish va bu orqali ma'nan ozuqaga va boy tafakkurga ega bo'lishdir. Kitob mutoalasi insonga ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga zinhor va zinhor yo'l qo'ymaydi. Shunday ekan kitobni mutolaa qiluvchi har qanday inson yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishishi mumkin. Kunning ma'lum qismlarini foydali kitob mutoalasi uchun ajratish muhim ahamiyatga ega. Chunki, Hadisi sharifda ta'kidlanganidek, "Yoshlikda olingan ilm, toshga o'yilgan naqsh"dir [3]. Ha, darhaqiqat, yoshlikda o'qigan kitob yillar davomida odamning do'sti bo'lib qoladi.

Frensis Bekon kitobni shunday ta'riflaydi: "Kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga tashiyotgan hikmat kemasidir" [4]. Kitob o'qigan odam dunyoning istalgan burchagiga xayolan sayohat qila oladi, dunyoning sir-sinoatlari bilan tanishadi. Albatta, birovning yuki boshqa birovga og'irlik qiladi, biroq kitobning qimmatli yuki hech kimga og'irlik qilmaydi, u avlodlar uchun javohirlardan ham qadrli merosdir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda texnika rivojlanayotgan bir davrda kitob mutolasiga qiziqish kamaydi, kutubxonalarda esa kitobxonlar siyraklashdi. Bu achinarli holat. Ba'zi bir insonlarning qo'lida kitob ko'rsak, avtobuslarda asar ustida bahslashayotgan yoshlarni ko'rsak quvonamiz, albatta. Bunday yoshlarning safini ko'paytirish uchun ko'proq kitobxonlik tanlovlarini rivojlantirish, har bir xonadonda shaxsiy kutubxona yaratish kerakligini aytishimiz lozim. Zero, shu harakatlarimiz orqali kitobsevarlarni ko'paytira olsak, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Har bir insonning kelajagi o'z qo'lida. Umrimiz davomida qilgan yaxshi va yomon ishlarimiz, o'tmishimiz va kelajagimiz ham bir kitob kabidir. Mana shu kitobning ichini oltinga tenglashtirish o'z qo'limizda. Umrimizni savobli ishlar bilan boyitaylik va o'z kitobimizni o'zimiz yarataylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ziyouz.com."Donolar kitobi haqida"
- 2.Islom Karimov "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga ,kelajakka e'tibor".Toshkent "O'zbekiston" .2009
- 3.Hadisi sharif kitobidan
- 4.www.google.uz